



**PRESS-RELIZ**

**2022-yil 28-iyul**

## **Yetakchi xalqaro banklar bilan uzoq muddatli sindikatsiyalashgan kredit bo‘yicha bitimni amalga oshirish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi tarixida birinchi marta “NKMK” AJ tomonidan yetakchi xalqaro banklardan 5 yil muddatga garovsiz uzoq muddatli sindikatsiyalashgan kredit jalb etildi. Bitimning umumiy qiymati 1,2 mlrd AQSh dollarini tashkil etadi. Mablag‘larni taqdim etishda JP Morgan&Chase, Citi, Societe Generale, Credit Suisse, ICBC Standard, Halyk Bank va Deutsche Bank kabi banklar ishtirok etmoqda. Mablag‘lar kompaniyaning umumiy korporativ maqsadlari hamda investitsiya dasturini moliyalashtirish uchun yo‘naltiriladi.

“NKMK” AJ bitimda ishtirok etayotgan barcha hamkorlar – xalqaro banklarga samarali hamkorlik uchun minnatdorchilik bildiradi. Bu “NKMK” AJ uchun xalqaro moliya bozorlari bilan hamkorlikni rivojlantirish bo‘yicha birinchi qadam bo‘lib, kompaniyani kelajakda yevrobond joylashtirish va IPO ga tayyorlaydi.

2019-yilda boshlangan “NKMK” AJning transformatsiyasi kompaniyaning O‘zbekiston Respublikasi oltin qazib olish sanoatidagi mavqeini sezilarli darajada mustahkamladi. “NKMK” AJni transformatsiya qilish va oltin ishlab chiqarish bo‘yicha global yetakchiga aylantirishning yana bir bosqichi sifatida biz bu boradagi barcha jarayonlarni Jahon oltin kengashi (World Gold Council) va Sianidni boshqarish bo‘yicha xalqaro Kodeks (International Cyanide Management Code) tomonidan ishlab chiqilgan mas‘uliyatli oltin qazib olish (Responsible Gold Mining Principles) tamoyillari bilan birlashtirishga qaratilgan maqsadimizni e‘lon qilamiz.

### **Murojaat uchun ma‘lumotlar:**

“NKMK” AJ Matbuot xizmati, Ish telefonlari: +99879 227-75-88

“NKMK” AJ rasmiy veb-sayti: [www.ngmk.uz](http://www.ngmk.uz)

“NKMK” AJning ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifalari:

[t.me/ngmkofficial](https://t.me/ngmkofficial), [www.fb.com/ngmkofficial](https://www.fb.com/ngmkofficial), [instagram.com/ngmk.official](https://instagram.com/ngmk.official), [www.youtube.com/nkmkofficial](https://www.youtube.com/nkmkofficial)